

LEYKOTSITLAR MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

¹Yusupov B.N., ²Abdiraimova A.N.

¹Toshkent tibbiyot akademiyasi,

²Toshkent davlat pedagogika universiteti

Leykotsitlar yadro tutuvchi qon hujayralari bo'lib, tashqi ko'rinishi va faoliyatiga ko'ra keskin farq qiladi. Leykotsitlar organizmni tashqi va ichki patogen omillardan himoya qiladi. Leykotsitlarning umumiy miqdori $4-9 \times 10^9/l$.

Leykotsitlar morfologiyasi, faoliyati va bo'yalishiga ko'ra bir necha xil turlarga bo'linadi: neytrofillar, eozinof.

Tayoqcha yadroli neytrofil diametri 12-16 mkm. YAdro - sitoplazma nisbati 1:1. YAdrosi pushti-binafsha rang, shakli tayoqcha ko'rinishida, xromatin strukturasi yirik bo'lakchali, zich, yadrocha mavjud emas. Hujayra sitoplazmasi pushti rang, neytrofil donadorlikka ega. Normada periferik qonda tayoqcha yadroli neytrofillar 0-6%.

Segment yadroli neytrofil diametri 12-16 mkm, hujayra yadrosi qizil - binafsha rang, yadro - sitoplazma nisbati 1:6-1:8. Xromatin strukturasi yirik bo'lakchali. Xujayra sitoplazmasi pushti rang, neytrofil donadorlikka ega. Neytrofillarning asosiy funksiyalari: fagotsitoz, dezintoksikasiya, yallig'lanish reaksiyasini chaqirish, leykotsitlarning etilishida ishtirok etish, qon ivishida ishtirok etish. Normada periferik qonda segment yadroli neytrofillar 47-72%.

Eozinofillar 12-16 mkm diametrdagi yumaloq hujayralar bo'lib, yadro sitoplazmatik nisbati 1:1. YAdrosi to'q binafsha rang, odatda ikkita segmentdan iborat, xromatin strukturasi notekis, yirik bo'lakchali. Sitoplazma oksifil, yirik sariq-pushti rangli maxsus granulalarga ega. Eozinofillar qonda 6-12 soat bo'ladi, keyin to'qimalarga o'tadi. Eozinofillar 4 - 30 soat yashaydi. Eozinofillarning funksiyasi allergik reaksiyalarni cheklash, antigement immunitetni hosil qilish, fagotsitoz, yallig'lanish jarayonida ishtirok etish, qon ivishida ishtirok etish. Normada leykoformulada 0-5% eozinofillar bo'ladi.

Bazofillar leykotsitar formulada normada 0-1% uchraydi. Ularning funksiyasi: qon tomir o'tkazuvchanligini yaxshilash, allergik reaksiyalarni cheklash, o'smaga qarshi jarayonda ishtirok etish, yallig'lanishga qarshi ta'sir, qon ivishida ishtirok etish, triglitseridlar metabolizmida ishtirok etish.

Monotsit yumaloq shakldagi, diametri 18-20 mkm bo'lgan hujayradir. YAdro - sitoplazmatik nisbati 1:1. Monotsit yadrosi loviyasimon, buyraksimon, segment yoki tayoqcha shaklida bo'ladi, eksentrik joylashadi. Xromatin strukturasi siyrak. Monotsit sitoplazmasi keng, havo-kulrang. Funksiyalari: fagotsitoz, maxsus immunitetni hosil qilish, reparativ jarayonlarda ishtirok etish, gemopoez regulyasiyasi, metallar metabolizmida ishtirok etish (temir, mis, rux). Normada leykoformulada monotsitlar soni 3-11%. Absolyut soni $0,09-0,60 \times 10^9/l$.

Limfotsit 9-15 mkm diametrga ega bo'lgan yumaloq hujayradir. Hujayra yadro - sitoplazmatik nisbati 4:1-8:1, yadrosi yumaloq, xromatin strukturasi dag'al, bo'laklangan, sitoplazmasi bazofil, yupqa. Morfologiyasi bo'yicha limfotsitlar kichik, o'rta va katta bo'ladi. Limfotsitlar funksiyasi: plazmatik hujayraga aylanadi va antitelo ishlab chiqaradi, yot, saraton hujayralari, virus, sodda hayvonlarga

